



AQSH DAVLATCHILIGINING VUJUDGA KELISHI

*Jumanazarova Aziza Sayfiddin qizi
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada jahondagi eng rivojlangan mamlakatlaridan biri bo'lmish AMERIKA QO'SHMA SHTATLARining paydo bo'lishi, davlat tuzumi, aholisi va etnik guruhlari, hamda, qishloq xo'jaligi haqida xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: [Ikki partiyalı tizim,] Fuqarolar urushi, Yangi yo'l, **NATO** a'zosi, Konstitutsiyaviy tizim, Afroamerika, [Yangi yo'naliş], [Vagner qonuni].

Amerika Qo'shma Shtatlari(AQSH) – 50 ta shtat va bitta federative okrugdan iborat federative respublikadir. Bundan tashqari AQSH tarkibiga Tinch okeanidagi bir qator orollarni o'z ichiga oladi. Maydoni 9,36 mln.km bo'lib, dunyoning eng katta davlatlaridan biri hisoblanadi. Poytaxti – Vashington. Rasmiy tili – ingliz tili.

AQSH – qadim zamonlarda AQSH hududida indeyslar va eskimoslar yashagan. Amerika 1492 – yilda Christopher Columbus tomonidan kashf etilgan. Keyin XVI asrda Ispaniya, Fransiya, Angliya, Gollandiya va Shvetsiya AQShdagagi bo'sh yerlarni egallashga kirishdi. 1775 – 83- yillaridagi Shimoliy Amerikada mustaqillik uchun urush davomida 1776 – yil 4-iyulda federal davlat – AQSHga asos solindi va u respublika deb e'lon qilindi. **GEORGE WASHINGTON** Amerika Qo'shma Shtatlarining birinchi prezidenti etib saylandi. Mamlakat shimolida sanoat va fermerlik, janubida quldarlikka asoslangan dehqonchilik asoslandi. G'arbdagi indeys qabilalarini haydab yuborish va yangi yerlarni o'zlashtirish hisobiga AQSH hududi tez kengaya boshladi. XIX asrda o'talarida AQSHda {IKKI PARTIYALI TIZIM} tarkib topdi. Hokimiyyati – Demokratlar partiyasi va Respublikachilar partiyasi galma-gal boshqaradigan bo'ldi. Shimoliy burjuaziyasi bilan janub plantatorlari o'rtasidagi ziddiyat AQShda 1861 – 65 yillarda **fuqarolar urushiga** olib keldi, unda president Abraham Lincoln boshchiligidagi shimoliy shtatlar g'alaba qozondi. Urush davomida yer ulushlari haqida (1862), quldarlikni bekor qilish to'g'risida (1865) qonunlar qabul qilindi. Fuqarolar urushidan so'ng mamlakat iqtisodiyoti juda jadal rivojlana boshladi. Ammo tez orada iqtisodiy inqiroz (1929-1933) boshlanib, ishsizlik kuchaydi (1933-yilda 17mln ishsizlar bor edi), korxonalar sindi, ishlab chiqarish keskin pasaydi.



Inqiroz sharoitida Franklin D.Roosevelt (1933-1945-yillarda AQSH prezidenti) boshchiligidagi Demokratik partiya ma'muriyati hokimiyat tepasiga keldi. Uning tashabbusi bilan bir qancha ijtimoiy – iqtisodiy tadbirlar amalga oshirildi. **Yangi yo'l** - bu AQSHni inqirozdan olib chiqish maqsadini ko'zlar edi. 1941-yilda Yaponiya Amerikaning Pearl Harbor harbiy-dengiz bazasiga hujum qilganidan keyin AQSH ikkinchi jahon urushiga qo'shildi va Adolf Hitlerga qarshi koalitsiya tomoniga o'tdi. Amerika qurolli kuchlari asosan Tinch okeanda Yaponiyaga qarshi jangovar harakatlarda qatnashdi. 1943-yilda Italiyaga qo'shin tushirdi. AQSH ittifoqchilarining xalqaro anjumanlarida (1943-yil Texron, 1945 – yil Qrim, 1945 – yil Potsdam konferensiyalaridan) qatnashdi. Nihoyat, 1944 – yil 6-iyunda AQSH bilan Buyuk Britaniya Ikkinci frontini ochdi. 1945-yil avgustda Harry S. Truman (1945-1953 yillarda AQSH prezidenti) buyrug'i bilan Yaponiyaning Xirosima va Nagasaki shaharlariga atom bombalari tashlandi; o'ng minglab tinch aholining qirilishiga sabab bo'ldi. 1950-1953 yillarda AQSH Koreya urushida qatnashdi, 1956-1975 yillarda Vyetnamda urush olib bordi. 1945 –yildan AQSh – BMT, shuningdek, Amerika davlatlari tashkiloti, **NATO** a'zosi.

AQSHning amaldagi konstitutsiyasi 1787-yilda qabul qilingan. Davlat va hukumat boshlig'i, qurolli kuchlar bosh qo'mondoni – prezident, uning vakolatlari juda katta, 4 yil muddatga saylandi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni Senat va vakillar palatasidan iborat, ikki palatali kongress amalga oshiradi. Senatda 100 senator bor (ular 6 yil muddatga, har shtatdan 2 tadan saylanadi va 1/3 qismi har 2 yilda yangilab turiladi). Vakillar palasiga 435 deputat 2 yilga saylanadi. Ijrochi hokimiyat organ – AQSH hukumati prezident tomonidan senatning roziligi bilan tayinlanadi; 13 vazirdan iborat bo'ladi. Har shtatning o'z konstitutsiyasi bor. AQSH davlatining konstitutsiyaviy tizimiga uch siyosiy-huquqiy qoida asos qilib olingan, bu qoidalar – hokimiyatning bo'linishi, federalism va sudning konstitutsiyaviy nazoratidan iborat. Davlat hokimiyatining uch tarmog'i – qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatlarining mustaqilligini va ular o'rtasida vazifalarning chegaralab qo'yilishini nazarda tutadi. Federal darajadagi uch tarmoq- Kongress, Prezident va Oliy suddir. 1854-yil Respublikachilar partiyasi, 1828-yil Demokratik partiyasi, 1919-yil Kommunistik partiyalari tuzilgan. 1955-yil Amerika Mehnat Federatsiyasi – ishlab chiqarish kasaba uyushmalari Kongressi tashkil etilgan. AQShda salkam 40 mustaqil kasaba uyushmalari ham bor, ularga 4,5 mln ishchi va xizmatchi a'zo bo'lib kirgan.

AQShning hozirgi aholisi uch etnik tarkibiy qismdan: amerikaliklari, muhajirlar va tub joy aholisidan iborat. AQSh aholisining 82,8 % ni yevropaliklar,



12,6% ni afrikaliklar, 3,6% ni osiyoliklar, 1% ni hindular tashkil etadi. Aholining 80% shaharlarda yashaydi. **Afroamerikaliklar**({qoralar} deb ataluvchi negrlar) AQSh amerikaliklarining irqiy-etnografik guruhi bo'lib, ular 17 – 19 asrlarda mamlakatga keltirilgan afrikalik qullarning avlodlari hisoblangan. Afroamerikaliklar ko'p asrlar davomida ayirmachilik va kansituvga duchor qilinishiga qaramay, afrikaliklarining oq tanlilar bilan jismoniy aralashuvi sodir bo'lgan. Afroamerikaliklar umumiy sonining anchagina qismini tashkil etadi. 1933-yil 16-iyunda kuchga kirgan sanoatni qayta tiklash haqidagi qonun <**Yangi yo'nalish**> doirasidagi yana bir muhim tadbir bo'ldi. Bu qonun sanoatning davlat tomonidan joriy qildi. 1933-yil 12-mayda fermerlarga yordam berish haqidagi qonun qabul qilindi. Ularning mahsulotlariga bo'lgan narxlarni oshirish zarur edi. Fermerlarga ekinzorlar maydonini va chorva turini qisqartirish haqida davlat bilan kontrakt tuzish taklif etildi. Buning uchun ularga mukofotlar berildi. Fermerlarning qarzlari davlat hisobiga qabul qilindi va davlat yuz minglab fermerlarga kredit berdi. Yangi yo'nalish AQShdagi ijtimoiy munosabatlarni liberallashtirish uchun ijtimoiy qonunchilik sohasida muhim siljishni amalga oshirilidi. 1935-yili AQSh Kongressi <**Vagner qonuni**>ni qabul qildi. Mazkur qonun bo'yicha ishchilar jamoaviy shartnomalar tuzish huquqiga va ish tashlash huquqiga ega bo'lishdi. Kasaba uyushmalari huquqlarining va ish tashlash huquqining tan olinganligi ishchilar sinfining o'z saflarining birligi uchun kurashiga yangi turtki berdi. Kasaba uyushmalari soni ko'payib keta boshladи.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. {The Great Seal of the United States}.U.S.Department of State , Bureau of Public Affairs (2003).
2. {Historical Census Statistics On Population Totals By Race, 1790 to 1990, and By Hispanic Origin , 1970 to 1990, For Large Cities and Other Urban Places In The United States}(2012)